



Karimjonova Munavvar Ibragimovna
*Bojxona instituti iqtisodiy va ijtimoiy fanlar
kafedrasi dotsenti, PhD, Toshkent shahri,
O'zbekiston Respublikasi,
KMI23021967@gmail.com.*

To'lqinboyeva Zilola Ulugbek qizi
*Bojxona instituti2-kurs 422-guruh kursanti
zilolatolqinboyeva@gmail.com*

RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLARNING TA'LIM TIZIMI TAJRIBALARI VA ULARNING TADQIQ ETISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimining o'ziga xos ilg'or tajribalari o'rganilgan va tahlil qilingan hamda ularning ahamiyatli jihatlarini mamlakatimizning ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha tkalif va tavsiyalar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Yaponiya, AQSH, Fransiya, Germaniya, Metod, ta'lim tizimi, iqtidorli o'quvchi, mas'uliyat, oilaviy tarbiya, namunali xulq, pedagogik tajriba.

Annotatsiya: V dannoy statye issledovaniy unikalnyye opyty obrazovatelnykh sistem razlichnykh razvitykh stran, a takje proveden analiz ix vajnykh aspektov s selyu predlojit rekomendatsii i rekomendatsii po uluchsheniyu obrazovatelnoy sistemy nashey strany.

Klyuchevyye slova: Yaponiya, SSHA, Fransiya, Germaniya, Metod, obrazovatel'naya sistema, talantlivyy uchenik, otvetstvennost, semeynoye vospitaniye, primernoye povedeniye, pedagogicheskiy opyt.

Abstract: In this article, various advanced countries' experiences in the education system have been researched and analyzed, and their significant aspects have been highlighted. Recommendations and suggestions have also been provided for improving our country's education system.

Key words: Japan, USA, France, Germany, Method, education system, talented student, responsibility, family upbringing, exemplary behavior, pedagogical experience.

Kirish

Bugungi ilm, fan, texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanish davrida pedagogika faniga ham ular bilan hamnafas "pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiyalar", "innovatsion pedagogik texnologiyalar", "o'qitish texnologiyasi", "axborot kommunikatsiya texnologiyasi", "texnologiya transferi" singari qator yangi tushunchalar kirib keldi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: ".....ayni vaqtda ta'lim-tarbiya uassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, muallimlar, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, xorijdagi yetakchi ta'lim markazlari bilan ilmiy-pedagogik hamkorlikni kuchaytirish, o'quv-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini, yangi o'quv metodikalarini joriy etish bo'yicha hali oldimizda ko'plab dolzarb vazifalar turganini yaxshi anglaymiz va ularning

yechimi ustida doimiy ish olib boramiz.

Shuningdek, muxtaram yurtboshimiz har bir chiqishlarida va Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatlarida "...tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarurligi hamda bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib borayotganli shuningdek, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak ertaga kech bo'lishligi, ta'lim sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir" deb ta'kidlaydilar.

Darhaqiqat Yangi O'zbekistonga yangi kreativ yondashadigan, yuqori intellektual salohiyatli, axborotni mukammal o'zlashtiradigan zamonaviy raqobotbardosh kadrlar tayyorlash zamon talabadir.

Tahlil va muhokamalar

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'limga bo'lgan e'tibor va uning sifatini yanada oshirish, xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, yangi zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimlarini joriy etish uchun uchun respublika byudjetidan yuqori miqdorda mablag'lar ajratilmoqda. Ta'kidlash joizki, aynan ta'lim tizimining mukammal tuzilganligi ham ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalari asoslanib, mukammal milliy dastur ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu bois, quyida bir qator rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi o'rganilgan va tahlil qilingan.



Yaponiya ta'lim tizimi: Yaponiya ta'limida iqtidorli o'quvchi tushunchasi yo'q. chunki har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir. lig'or mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yo'nalishi yetakchi o'rinni egalaydi. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi



quyidagicha: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqining yomon jihalarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o'rgatishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga tasir etadi.



Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo'lgan yagona davlat.

Majburiy ta'lim muhiti. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan



bolalarni o'z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Yuqori o'rta maktab 10-11-12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud.

Yuqori bosqich o'rta maktablarda butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi. Universitetlariga yuqori va o'rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqich turar joyda o'tkaziladi, buning uchun yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tkaziladi. Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir.



Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini mas'ul deb hisoblaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo'lib, parta ustida kitob javoni,

yoritkich, soat, qalam, qog'oz, mikro kalkulyator va boshqa zaruruy ashyolar, shuningdek kerak bo'lib qolgan taqdirda ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o'rnatilgan. Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi AQSH o'rta maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki yaponiyada ta'lim tizimni ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni — Yaponiyada faqat milliy an'ana'ar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o'zlashtirilgan. Bunday tajribalar Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz.



Amerika Qo'shma Shtatlari ta

'lim tizimi: Amerikada o'rta ta'lim 12 yil bo'lib boshlang'ich o'rta va quyi maktablarga bo'linadi. Aksariyat qismi davlat maktablaridan iborat va ularda o'quvchilarning 88 foizi o'qiydi. Ta'lim muassasalarini davlat va shahar buyudjetlari

moliyalashtiradi, Qo'shma shtatlarda yalpi ichki mahsulotning 7,5 foizi har yili ta'limga sarflanadi. 12 foiz o'quvchilar xususiy maktablarga boradi, ularning moddiy resurslari ota-onalar, turli mablag'lar va xayriya mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Mamlakatlarda ta'lim maskanlari raqamlarga ega emas, ammo ular hududlar bo'yicha yoki mashhur kishilar nomi bilan ataladi.



Odatda har bir sinf xonasi televizor va kompyuterga ega. Kompyuter sinflari yuqori tezlikdagi internetga ulangan. Amerikada nusxa ko'chirish uskunalari juda ko'p joylashtirilgan. Chunki o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga deyarli barcha vazifalar bosma shaklda beriladi. Boshlang'ich maktabda har yil sinf o'qituvchisi o'zgaradi.

Boshlang'ich sinflarda matematik bilimlarning hajmi Rossiya va Angliya maktablari darajasiga nisbatan biroz yengilroq, Ko'paytirish jadvali 3-sinfdan boshlanadi. Amerika



maktablaridagi o'ziga xos usullaridan biri har bir o'quvchining. Hisobot kartasi yuritilishidir. Unda o'quvchi 10 xil xatti -harakati bo'yicha baholanadi. Ota-onalar ushbu karta bilan tanishib borar ean, farzandlariga oqsayotgan tomonlarini aniqlab, uni tuzatishga harakat qilishadi.



Amerika pedagoglari haftasiga bir marta 1-3-sinf o'quvchilari uchun "Sevimli o'yinchoq" metodini qo'llashadi. Bu metodda bolalar o'yinchogini tariflaydi. Mazkur metodni qo'llashdan maqsad bolani uyatchanlikdan xalos bo'lishga, sinfdoshlari orasida erkin gapirishga o'rgatishdir.

Amerikada ta'limni haddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimining puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli boy moddiy baza va tajribaga ega bo'lgan davlatda butunlay savodsiz bo'lgan bolalar ham topiladi. AQSH da ta'lim tzmning maqbul tomonlarining ijobiy qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi.



Germaniya ta'lim tizimi:

Germaniya jahon ma'rifat va madaniyat o'choqlaridan biri. Ushbu davlatda har bir fuqaro o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Maktab ta'lim tizimi boshlang'ich va o'rta ta'lim muassalaridan iborat. Barcha davlat maktablaridao'qish bepul.

Germaniyada maktab ta'limi quyidagi maktab tiplariga bo'linadi (1-rasm):



1-rasm. Germaniya davlatining maktab ta'lim tizimi tiplari²



Boshlang'ich maktab ta'lim tizimining poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish maktabga o'tishadi. Asosiy yoki to'liq xalq maktabi boshlang'ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziyaga bormagan barcha o'quvchilar uchun majburiydir. Asosiy maktab o'qituvchilari o'zlarini o'qituvchi emas, ijtimoiy pedagog, deb his qiladi. Lekin asosiy maktabdagi o'quvchilar yomon o'zlashtirishiga qaramasdan kasbiy ta'lim olishiga majbur bo'lishadi. Real maktablar ikkinchi bosqichga qarashli bo'lib, odatda 5-10-sinflarni o'z ichiga oladi.

Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta'lim beradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mas'uliyat hissi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmalariga yuqori talab qo'yadigan kasb egalari bo'lishi uchun kasbiy ta'lim kurslariga tayyorlaydi. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga juda murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o'rin olishda o'zini oqlab kelayotgan ta'lim tizimi mavjud.

Germaniya ta'limidagi quyidagi ilg'or tajribalar mamlakatimiz ta'lim tizimiga ham implementatsiya qilinmoqda, jumladan:


² Ma'lumotlar asosida mualliflar ishlanmasi.



1. Tabaqallashtirib o'qitishga kuchli e'tibor;
2. O'quvchilarni mehnat ta'limini mustahkamlash
3. Kasbga yo'naltirish.



Fransiya ta'lim tiizimi: Fransiyada ta'lim sifati ta'lim, sport va tadqiqotlar bo'yicha bosh inspeksiya tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu bosh inspeksiya 4 ta vazirlik uchun faoliyat ko'rsatadi. Bosh inspeksiya 4 ta vazifani bajaradi (2-rasm):



2-rasm. Fransiya davlatida ta'lim tizimi sifat inspeksiyasining vazifalari³

Bosh inspeksiyada to'planadigan tajribalarning xilma-xilligi, bolalar bog'chasidan doktoranturaga qadar davlat siyosatini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim, fan va yoshlarni rivojlantirishga, o'quvchilarni sport, jamiyat hayoti va jamoat o'qishiga jalb etishga ta'sir qiladi.



Fransiya ta'lim tizimiga ko'ra bola 6-7 yoshida tayyorlov sinfga boradi, keyin shu maktabda 4 yil boshlang'ich sinfdan o'qiydi. Bu boshlang'ich sinflar odatda alohida boshlang'ich maktab sifatida faoliyat ko'rsatadi hamda ularning inspeksiyasi ham, alohida bo'ladi. Keyingi bosqich o'rta ta'lim kollej deb ataladi. U yerda bola 4 yil o'qiydi va yakunida to'liqsiz maktab bitiruvchisi deb hujjat

³ Ma'lumotlar asosida mualliflar ishlanmasi.



beradi. Keyingi 3 yil davomida turli yoʻnalishdagi litseylarda oʻqiydi hamda yakunida bakalavr imtihonini topshirib uning natijasiga qarab OTMlarga qabul qilinadi.

Oʻqituvchilarni ishdan olishni maktab direktori amalga oshirmaydi. Yaxshi ishlaydigan oʻqituvchilarni direktor tavsiyasiga muvofiq, taʼlim inspeksiyasi tomonidan taftish qilinadi. Uning intizomi, oʻqituvchilik faoliyati, bolalar, ota-onalar oʻrtasidagi obroʻsi diqqat bilan oʻrganiladi va tegishli chora koʻriladi. Maktab oʻqituvchilariga qoʻyilgan talab Fransiyada oʻta yuqori. Ayniqsa boshlangʻich maktablarda oʻqituvchi oʻz kasbining ustasi, ajoyib notiq, sanʼatkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq egasi boʻlmogʻi lozim.



Fransiya taʼlim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalari koʻzda tutilmagan. Biroq maktablarda, litseylarda turli toʻgaraklar mavjud.

Oʻzbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi huzuridagi taʼlim sifatini nazorat qilish taʼlim inspeksiyasi tashkil qilinganiga endigina 2 yildan oshdi. Oʻtgan davr mobaynida inspeksiyaga yuklatilgan vazifalar bajarish boʻyicha ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻrganish va ularni yurtimiz taʼlim sifatini baholash ishlarini joriy etish boʻyicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Biz ayni damda chet el pedagogikasidagi ilgʻor jihatlarini oʻzlashtirish, yangi- yangi oʻquv predmetlarini taʼlim tarkibiga kiritish bilan jahondagi eng ilgʻor pedagogikalarinig biriga aylantirish.

Xulosa va takliflar

Xorijiy davlatlarning taʼlim tizimi tajribalari orqali mamlakatimizning taʼlim tizimini yanada rivojlantirishga eʼtibor qaratish hozirda muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta taʼlimga har qanday yangilik, oʻzgarish, jiddiy tahlillar va tajribalar asosida kirib keladi. Yuqorida keltirilgan davlatlarning taʼlim tizimlari shu jumladan Yaponiya, AQSH, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarning taʼlim tajribalarini milliy taʼlim tizimimiga tadbiq etish asosida taʼlim sifatini oshirishga erishish mumkin boʻladi. Bizning fikrimizcha haftasiga bir marta, boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun, huddi Amerika taʼlim tiizmi kabi bolaning boshqalar orasida oʻzini erkin his qilishiga, uyatchanlikdan halos boʻlishiga koʻmaklashish maqsadida turli metodlarni qoʻllash maqsadga muvofiq. Shuningdek, Amerika taʼlimida



maktablarga raqamlar orqali nom berilmaydi, ya'ni maktablar buyuk insonlarning ismlari orqali nomlanadi, bu esa o'quvchilarga o'ziga xos kuchga ega bo'lish va o'qish hamda bilim olishga undovchini yanada oshirish uchun muhim motivatsiya beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O'zbekiston,2018. – 448 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi” 2022-yil 21-dekabr.
3. K. S. Abdiyeva “Ta'lim sifatini oshirishda xalqaro tajribalardan foydalanish” maqola. <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-sifat-samaradorligini-oshirishda-xalqaro-tajribalardan-foydalanish/viewer>.
4. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilm- fan (metodik qo'llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.)
5. K.G.Anorqulkova, A. Karimov Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.
6. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? -, Boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2019-yil. 12- son.
7. R.Ilashova. Amerika maktablarida.- “Boshlang'ich ta'lim” jurnali. 2019- yil. 3-son.;
8. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/zbekistonda-talim-tizimi>.